6-SINF UMUMIY TEST

1. Xettlarning asosiy raqibiga aylangan Mitanni podsholigi hozirgi qaysi davlat hududida vujudga kelgan ?
A) Turkiya
B) Suriya
C) Falastin
D) Liviya

2. Qadimgi Misrdagi hayotning birlamchi manbai va posboni hisoblangan xudoni aniqlang ?
A) Apis
B) Osiris
C) Xatxor
D) Xapi

3. Qaysi davrda O'rta Osiyoning janubida sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik vujudga kelgan ?
A) Eneolit davrida
B) Mezolit davrida
C) Bronza davrida
D) Neolit davrida

4. Nechanchi asrlarda Hindistonda Magadha, Koshala, Malla davlatlari vujudga kelgan ?
A) Mil. avv. VII-VI asrlarda
B) Mil. avv. VI-IV asrlarda
C) Mil. avv. VI-V asrlarda
D) Mil. avv. V-IV asrlarda

5. Quyidagi qaysi shaharga "boqiy shahar" deya ta'rif berilgan ?
A) Spartaga
B) Bobilga
C) Rimga
D) Afinaga

6. Qadimgi dunyo tarixida sodir bo'lgan quyidagi voqealar to'g'ri xronologik ketma-ketlikda berilgan javobni toping.
1) Ahamoniylar davlati tashkil topdi
2) Finikiyada 22 undosh harfdan iborat bo'lgan alifbo yaratildi
3) Davan yuksak taraqqiy etgan davlatga aylandi
4) O'rta Osiyo hududida ilk tanga pullar tarqaldi
A) 2,3,4,1
B) 2,1,4,3
C) 1,2,4,3
D) 2,1,3,4

7. Rimda Respublika davrida liktorlar nima uchun yelkalari orasida boltacha sanchilgan qayishqoq arqonchalardan bog'lama taqib yurishgan ?
A) Rimning tub aholisi plebeylar isyon ko'targanda uni bostirish maqsadida
B) Konsul - urush davrida Rim hukmdori etib tayinlangani uchun
C) Konsul jinoyatchilarni jazolash imkoniyatiga egaligi alomati sifatida
D) Rimning barcha fuqarolari mavqeyidan qat'iy nazar qonun oldida tengligini nazorat qilish maqsadida

8. O'rta Yunonistonning qaysi qismida Attika viloyati joylashgan edi ?
A) Janubi-sharqiy
B) Shimoli-g'arbiy
C) Janubi-g'arbiy
D) Shimoli-sharqiy

9. To'g'ri ma'lumotni toping.
A) Doro I Suza shahridan Qora dengizga qadar "shoh yo'li" degan savdo yo'lini qurdirgan
B) Doro I Qizil dengizi bo'ylarida yashovchi skiflar ustiga yurish qildi
C) Doro I saltanatni "satrapliklar" deb nomlangan alohida harbiy-ma'muriy bo'laklarga taqsimladi
D) Doro I butun mamlakat uchun "numisma" deb nomlangan mis tanagni muomilaga kiritdi

10. Quyidagi qaysi davlatlardan biri boshqalariga nisbatan avvalroq vujudga kelgan ?
A) Salavkiylar davlati
B) Davan davlati
C) Yunon-Baqtriya davlati
D) Kushon podsholigi

11. Qaysi davrda odamlar toshdan ancha takomillashgan kesuvchi va arralovchi mehnat qurollari yasaydigan bo'lishgan ?
A) So'ngi paleolit
B) Ilk paleolit
C) Bronza davrida
D) O'rta paleolitda

12. Spartak va Mark Krass o'rtasidagi hal qiluvchi jang qachon bo'lib o'tgan ?
A) Mil. avv. 44-yilning bahorida
B) Mil. avv. 49-yilning kuzida
C) Mil. avv. 71-yilning bahorida
D) Mil. avv. 75-yilning kuzida

ISMOILBEK

13. Quyidagi qaysi din miloddan avvalgi I ming yillikda hali odamlar tabiatni ilohiylashtirgan kezlarda vujudga kela boshlagan ?
A) Zardushtiylik
B) Animizm
C) Moniylik
D) Nasroniylik

14. Doro I davrida Fors podsholigi qarorgohi qaysi shaharda joylashgan edi ?
A) Suza
B) Ekbatana
C) Persopol
D) Nineviya

15. Milodiy asr boshlarida “Xudoning o’g’li” nomini olgan Iso qaysi shaharda tug’ilgan ?
A) Rim
B) Bobil
C) Vizantiy
D) Vifleem

16. Quyidagi voqealarni bo’lib o’tgan davri bilan moslang.
1) Yunon-Baqtriya davlati tashkil topdi
2) “Buyuk meridianal yo’l” vujudga keldi
3) Rim imperiya davlatiga aylandi
4) Finikiyada 22 undosh harfdan iborat alifbo yaratildi
5) Misr Ahamoniylar davlati tomonidan bosib olindi
a) mil. avv. X asr b) mil. avv. VI asr
c) mil. avv. IV asr d) mil. avv. III asr o’rtalari
e) mil. avv. II asr f) mil. avv. I asr
A) 1-c, 2-f, 3-e, 4-a, 5-d
B) 1-d, 2-b, 3-f, 4-a, 5-c
C) 1-d, 2-e, 3-f, 4-a, 5-b
D) 1-c, 2-e, 3-a, 4-f, 5-b

17. Qadimgi forslar o’rnashgan Fors viloyati Eronning qaysi qismida joylashgan edi ?
A) shimolida
B) janubida
C) g’arbida
D) sharqida

18. Mezolit davri oxirida qaysi hududda xo’jalikning yangi tarmoqlari ibtidoiy ziroatchilik va chorvachilik vujudga kelgan ?
A) Old Osiyoda
B) Kichik Osiyoda
C) O’rta Osiyoda
D) Sharqiy Yevropada

19. Quyidagi qaysi Rim imperato’ri davrida Suriya va Mesopatamiya hududlari Rim imperiyasi tarkibiga kirgan ?
A) Odoakr
B) Romul
C) Feodosiy
D) Trayan

20. Qaysi davrda odamlarda chopqir hayvonlarni ovlash imkoniyati vujudga kelgan ?
A) O’rta paleolit
B) Ilk paleolit
C) So’ngi paleolit
D) Mezolit

21. Misrda Yangi podsholik davri fir’avnlari hujumlarini qaysi mamlakatlarga qaratganlar ?
A) Nubiya va Liviya
B) Nubiya va Old Osiyo
C) Sinay yarimoroli va Liviya
D) Old Osiyo va Liviya

22. Qadimgi Rim armiyasining tuzilishi to’g’ri ketma-ketlikda berilgan javobni aniqlang.
A) Legion-kogorta-falanga
B) Kogorta-senturiy-liktor
C) Senturiy-legion-falanga
D) Senturiy-kogorta-legion

23. Qadimgi sak qabilalari yashagan hududlari bilan to’g’ri moslashtirib berilgan javobni toping.
1) Saka-tigraxauda 2) Saka-tiaytaradarayya
3) Saka-xaumovarka
a) Pomirning tog’li tumanlarida va Farg’onada
b) Hozirgi Toshkent viloyati va Janubiy Qozog’iston yerlarida
c) Orol dengizi bo’ylarida, Sirdaryoning (qadimgi nomi Yaksart) quyi oqimida
d) Amudaryo bo’ylarida
A) 1-c, 2-b, 3-a
B) 1-b, 2-c, 3-d
C) 1-b, 2-c, 3-a
D) 1-a, 2-c, 3-a

24. Qadimgi Rimda Xalq majlisi qarorlarini qaysi organ tasdiqlagan ?
A) Sud kengashi
B) Konsullar kengashi
C) Senat
D) Beshyuzlar kengashi

25. Mil. avv. II ming yillik boshlarida Shumer-Akkad davlatining parchalanib ketishiga nima sabab bo’lgan ?

ISMOILBEK

A) Ossuriya qo’shinlarining zarbasi
B) Misr hukmdorlarining bosqini
C) Ko’chmanchi qabilalar zarbasi
D) Dengiz savdo yo’llarining yopilishi

26. Quyidagi qaysi shahar hukmdorlari giksoslarga itoat qilmagan ?
A) Fiva
B) Afina
C) Sinay
D) Memfis

27. Quyidagilardan Mesopotamiya shaharlarini belgilang.
A) Oshshur, Suza, Persopol, Ekbatana
B) Teyshebaini, Ekbatana, Tushpa, Suza
C) Tir, Sidon, Ugarit, Tushpa
D) Uruk, Umma, Lagash, Ur

28. Quyidagilardan qaysi biri mil. avv. 6-4-ming yilliklarda bo’lib o’tgan ?
A) Muzlik davri chekindi
B) Chorvachilik dehqonchilikdan ajralib chiqdi
C) Qabilalar o’troq turmush tarziga o’tdi
D) Kulolchilik charxi va g’ildirak kashf etildi

29. Rim davlati respublika deb yuritila boshlangan asrda bo’lib o’tgan voqeani toping.
A) Buddaviylik dini vujudga keldi
B) Zardusht va’zlari 21 ta kitobga jamlandi
C) Avestoning ilk qismlari paydo bo’ldi
D) Falastin hududida xristianlik dini vujudga keldi

30. Qaysi tarixiy davrda odamlar qarindoshlardan tarkib topgan ixcham guruhlarga - urug’ jamoalariga birlashdilar ?
A) Bronza
B) So’ngi paleolit
C) Ilk paleolit
D) O’rta paleolit

TUZUVCHI: Ismoilbek Ahmadjonov

KANAL: idealtarixdavronbek

ISMOILBEK